

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

RAXIMOVA SEVARA GAYRATOVNA

**POCHTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON
TIJORAT VA BIZNES JARAYONLARINI SAMARALI AMALGA
OSHIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Table of contents of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

Raximova Sevara Gayratovna

Pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijorat va biznes jarayonlarini samarali amalga oshirish yo‘nalishlari.....5

Рахимова Севара Гайратовна

Направления эффективного внедрения электронной коммерции и бизнес-процессов в развитие почтовых услуг.....25

Raximova Sevara Gayratovna

Directions for effective implementation of e-commerce and business processes in the development of postal services.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

RAXIMOVA SEVARA GAYRATOVNA

**POCHTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TIJORAT
VA BIZNES JARAYONLARINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH
YO'NALISHLARI**

08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston
Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt4020 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	To'rayev Shavkat Shuxratovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Otakuzieva Zuxra Maratdaevna iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Zufarova Nozima Gulamiddinovna iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" yanvar soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 108-uy. Tel.:(99871)238-64-15, E-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15 E-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "30" dekabrda 11- raqamli reestr bayonnomasi).

B.Sh.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

E.Sh.Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d.,
professor

Sh.Dj.Ergashxodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon bozorlarida raqobat muhitining tobora shiddatlashib borishi va iqtisodiyotning sifat jihatdan rivojlanib borishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohalari, jumladan pochta xizmatlari va elektron tijoratni samarali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. "2020-yilda global elektron tijorat savdosi qariyb 2,9 trillion dollarni tashkil etib, 2025-yil yakuniga ko'ra bu raqam 4,2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda"¹. Bugungi kunda jahon miqyosida pochta tizimiga bo'lgan an'anaviy talab va elektron tijoratni rivojlantirishda onlayn xaridlarni tez va ishonchli yetkazib berish, tizimning biznes jarayonlar bilan bog'liqligini kengaytirish yuzasidan samarali mexanizmlarni joriy qilish o'ta dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar tarkibida elektron xizmat ko'rsatish, jumladan elektron tijorat muammolariga oid tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada pochta xizmatini rivojlantirishda raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanishning huquqiy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, biznes jarayonlarni baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar (ROE, ROA, Sof foyda marjasi, RFA, RCA) asosida biznes jarayonlarni monitoring samaradorligini aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish kabi mavzular yo'nalishidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda pochta tizimi va elektron tijoratni rivojlantirish, aloqa sohasiga zamonaviy texnologiyalarni jadal kiritish, elektron savdo platformalari imkoniyatlarini kengaytirish, logistika markazlari tizimini takomillashtirish va qabul qilish hajmini oshirish kabilar yuzasidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning tovar va xizmatlar uchun to'lovlarini QR to'lovlari texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to'lovlarni qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo'lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini yaratish"² vazifalari belgilangan. Bu borada elektron tijorat va infratuzilmasini rivojlantirish, onlayn savdoning geografik qamrovini kengaytirish kabi mavzular yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 6-oktyabr PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy

¹ Statista.com saytining ma'lumotlari <https://www.statista.com/study/42335/ecommerce-report>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-sonli farmoni

tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integrasiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 14-dekabrda PQ-4921-son "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 17-noyabrda PQ-14-son "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida", 2022-yil 22-avgustda PQ-357-son "2022-2023 yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-iyulda 392-son "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", 2024-yil 26-dekabrda 885-son "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 18-martda 170-son "Tovar xom ashyo birjalari faoliyatiga ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish va elektron tijorat faoliyatini izchil rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pochta xizmatida elektron tijorat va uning mohiyati bir qator chet el iqtisodchi olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqilgan bo'lib, ulardan D.Koze, D.Eymor, M.Haig, V.Mikola, O.Andriy, D.Tapscott, M.M.Lawal, A.Khadija, S.Bytyqi, Agwu, J.P.Murray³ va boshqalar tomonidan elektron tijoratning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Shu bilan bir qatorda A.K.Nesterov, I.Golodovskiy, S.V.Pirogov, K.A.Pavlova, L.S.Klemcheniya, O.A.Kobelev, I.V.Uspenskiy, S.N.Smirnov⁴ kabi MDH davlatlari

³ Козье Д. Электронная коммерция / Д. Козье. М.: Издательство «Русская редакция», 2016. 365 с./ Эймор Д. Электронный бизнес. Эволюция и/или революция. Жизнь и бизнес в эпоху Интернет -М.: «Вильямс», 2001. 752с.; / Matt Haig. E-PR : The Essential Guide to Public Relations on the Internet / Matt Haig. – Kogan Page Ltd., 2000.; / Mikola V.Melnyki, Andriy O. Blyznyukov. Electronic Business of Japan in Comparison with the U.S. Mechanism of Economic Regulation, 2021, №2./ Tapscott, D. (2014). The Digital Economy. McGraw-Hill Education. / Lawal Mohammed Ma'aruf & Khadija Abdulkadir. An overview of e-commerce implementation in developed and developing country; A case study of United State and Nigeria. International Journal of Modern Engineering Research. 2012.; / Bytyqi S. (2020). Online Versus Traditional Shopping in Developing Countries Study Case – Kosovo. International Journal of Social Sciences Perspectives, doi:10.33094/7.2017.2020.71.10.21. / Agwu M.E. and Murray J.P. (2015). Empirical Study of Barriers to Electronic Commerce Adoption by Small and Medium Scale Businesses in Nigeria. International Journal of Innovation in the Digital Economy.

⁴ А.К.Нестеров электрон тижорат // Нестеровлар энциклопедияси - <https://odiplom.ru/lab/elektronnaya-kommerciya.html>; / И.Голдовский «Интернетта хавфсиз тўлов». Санкт Петербург 2001. 240б; / С.В.Пирогов «Электрон тижорат» дарслик. С.В.Пирогов томонидан тахрирланган. 2003 йил. 428п; / К.А.Павлова «Электрон тижоратнинг асосий шакллари тахлил қилиш»/ҳалқаро талабалар илмий бюллетени.-2017 йил.-№6; / Л.С.Климченя Электронная коммерция. -Минск: Высшая школа, 2009; / О.А.Кобелев Электронная коммерция, Дашков: 2020./ И.В.Успенский Электронная коммерция, С.Петербург, 2003./ С.Н.Смирнов,

iqtisodchi olimlari pochta xizmatida elektron tijoratni rivojlanishida bir qator ilmiy ishlar olib borishgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda pochta xizmatida elektron tijoratni rivojlantirish masalalari va istiqbollari bo‘yicha S.S.Beknazarova, D.M.Rasulov, S.K.Vapoev, G.M.Porsaev B.Sh.Safarov, D.K.Usmanova, Z.M.Otakuzieva, S.U.Mexmonov, M.J.Temirxanova, X.K.Qarshiboev, D.Safarova⁵ va boshqa bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Aytib o‘tish lozimki, mamlakatimizda elektron tijoratning pochta faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan biznes jarayonlari keng qamrovli va yaxlit ravishda o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan ushbu muammoni tadqiq etish pochta korxonalarida elektron tijorat tizimini samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot-texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №AL-7823051675 “Ijtimoiy tarmoqlardagi turli xarakterlik matnli ma’lumotlarni aniqlash va monitoringini amalga oshirish tizimini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijorat va biznes jarayonlarini samarali amalga oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektron tijoratni rivojlantirishdagi biznes jarayonlar va ularni ilmiy-nazariy asoslarini hamda uning xizmatlar sektori, ayniqsa pochta xizmatlariga ta’sirini aniqlash;

pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijorat tizimidan foydalanish usuli va yo‘nalishlarini tahlil qilish;

pochta xizmatida elektron tijoratni rivojlantirishda biznes jarayonlarni joriy etishning xorij tajribasini ilmiy asoslarini tadqiq qilish;

pochta xizmatlarida elektron tijorat bilan bog‘liq biznes jarayonlarning amaldagi holatini iqtisodiy va tizimli tahlil qilish hamda pochta xizmatlarini rivojlantirishda biznes jarayonlarni boshqarishni optimizasiyalash yo‘llarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston pochta tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Электронный бизнес. С.Н. Смирнов. - М.: Книга по Требованию, 2019. - 236 с.; Организация коммерческой деятельности: электронная коммерция. Учебное пособие для спо. Учебное пособие. Изд. 2 2022. 433 с.;

⁵ S.S.Beknazarova, M.G.Mustofoyeva Elektron tijorat rivojlanishining yo‘nalishlari va muammolari. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali 2023-yil 98-bet View of Elektron tijorat rivojlanishining yo‘nalishlari va muammolari (bestpublication.org); // D.M.Rasulov, S.K.Vapoyev. Elektron tijorat. O‘quv qo‘llanma. - T. : TDIU, 2010. - 6 b.; Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. “Raqamli iqtisodiyot asoslari”. Darslik. “Fan va texnologiyalar” matbaa uyi. 2020 yil.; Otakuziyeva Z.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida pochta aloqasi xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari.Iqtisodiyot va ta’lim jurnali 2-son 2021y.; Mekhmonov S.U., Temirkhanova M.J. Aktual issues of electronic commerce development in the republic of Uzbekistan. International journal of financial Management and Economics 2020; 3(1); / X.Q.Qarshiboev, D.F.Safarova. O‘zbekistonda elektron tijorat va uning muammolari tahlili. Academic Research in Educational Sciences Volume 4, Issue 6 , 2023-yil, 42-bet.;

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda pochta xizmatini amalga oshiruvchi yetakchi tashkilot hisoblangan “O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini pochta korxonasi elektron tijorat faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, mantiqiy va taqqoslama tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, statistik guruhlash, tanlanma kuzatish, ekspert baholash prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

axborot ochiqligi, yetkazib berish tezligi, raqamlashtirish darajasi, yangi mijoz segmentlarini jalb qilish strategiyalarini uyg‘unligi asosida biznes jarayonlarni moliyalashtirishda qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish mexanizmi takomillashtirilgan;

biznes jarayonlarni monitoring qilish modelining samaradorligini uslubiy jihatdan “O‘zbekiston pochta” AJ biznes jarayonlarini baholashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar (ROE, ROA, Sof foyda marjasi, RFA, RCA) asosida aniqlashning maqsadga muvofiqligi taklif etilgan;

“O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyati bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan davrda mahsulot realizatsiyasi, xizmat ko‘rsatish tannarxi va unga ta‘sir etuvchi omillarga ko‘ra rivojlanishning asosiy prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

“O‘zbekiston pochta” AJ da mijozlarning buyurtmalarini qayta ishlash sxemasi, biznes jarayonlarning xaritasi va asosiy ombor operatsiyalarini takomillashtirishga ko‘ra tarkibiy tuzilishi taklif qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijorat va biznes jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijoratning holatini ko‘rib chiqish natijasida mamlakatdagi onlayn tijorat sohasi faoliyatini raqamlashtirish tahliliga ko‘ra samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar asolangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi va “O‘zbekiston pochta” AJ ning rasmiy ma‘lumotlaridan olinganligi hamda ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy taklif, xulosa va tavsiyalar pochta xizmatini rivojlantirish, shuningdek, uning faoliyatiga elektron tijorat va raqamlashtirilgan texnologiyalarni tatbiq etishni tashkiliy-iqtisodiy baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar pochta xizmatini hamda mahalliy korxonalarda elektron tijorat xizmatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yanada taraqqiy ettirish, strategik boshqaruvini

yanada samarali yo'lga qo'yish, "yashil iqtisodiyot" yo'nalishidagi mexanizmni faollashtirish kabilarga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijorat va biznes jarayonlarini samarali amalga oshirish yo'nalishlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

axborot ochiqligi, yetkazib berish tezligi, raqamlashtirish darajasi, yangi mijoz segmentlarini jalb qilish strategiyalari uyg'unligi asosida biznes jarayonlarini moliyalashtirishda qo'shimcha mablag'larni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish "O'zbekiston pochta" AJ faoliyatiga joriy qilingan ("O'zbekiston pochta" AJ ning 2025-yil 18-martdagi 29-10/549-sonli, "FARGO PARCEL SERVICE FV" MCHJ ning 2025-yil 14-iyuldagi 148-sonli, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 18-iyuldagi 34-8/5061-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklif mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ortishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

biznes jarayonlarni monitoring qilish modelining samaradorligini uslubiy jihatdan "O'zbekiston pochta" AJ biznes jarayonlarini baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar (ROE, ROA, Sof foyda marjasi, RFA, RCA) asosida aniqlashning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklif "O'zbekiston pochta" AJ faoliyatiga joriy qilingan ("O'zbekiston pochta" AJ ning 2025-yil 18-martdagi 29-10/549-sonli, "FARGO PARCEL SERVICE FV" MCHJ ning 2025-yil 14-iyuldagi 148-sonli, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 18-iyuldagi 34-8/5061-sonli ma'lumotnomalari). Taklif ROE-xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichining 2023-yilda (0,62%) 2021-yilga nisbatan 0,08 foizga oshishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

"O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan davrda mahsulot realizatsiyasi va xizmat ko'rsatish tannarxi va ta'sir etuvchi omillarga ko'ra rivojlanishning asosiy prognoz ko'rsatkichlari "O'zbekiston pochta" AJ faoliyatiga joriy qilingan ("O'zbekiston pochta" AJ ning 2025-yil 18-martdagi 29-10/549-sonli, "FARGO PARCEL SERVICE FV" MCHJ ning 2025-yil 14-iyuldagi 148-sonli, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 18-iyuldagi 34-8/5061-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklif aksiyadorlik jamiyati realizasiya qiliadigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning tannarxini 2030-yilda 272 968,6 ming so'mni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan 2,5% ga pasayishi imkoniyatlarini kengaytrishga muayyan darajada xizmat qilgan;

"O'zbekiston pochta" AJ da mijozlarning buyurtmalarini qayta ishlash sxemasi, biznes jarayonlarning xaritasi va asosiy ombor operatsiyalarini takomillashtirishga ko'ra tarkibiy tuzilishi taklifi "O'zbekiston pochta" AJ faoliyatiga joriy qilingan ("O'zbekiston pochta" AJ ning 2025-yil 18-martdagi 29-10/549-sonli, "FARGO PARCEL SERVICE FV" MCHJ ning 2025-yil 14-iyuldagi 148-sonli, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 18-iyuldagi 34-8/5061-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklif tashkilotda xodimlar faoliyati samarali yo'lga qo'yish va sof foyda hajmini

2023-yilda barqaror ravishda saqlanib qolishiga erishishda muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Mazkur dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi hamda uning zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va uning amaliy natijalari asoslanganligi va amaliy joriy etilishi, tadqiqot ishi yuzasidan muallif tomonidan nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishiga oid tegishli ma'lumotlar o'rin olgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijoratni va biznes jarayonlarni joriy etishning nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda elektron tijoratning mohiyati, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, elektron tijorat tushunchasi va tarkibiy qismlari, uni amalga oshirishda foydalaniladigan texnologiyalar, shuningdek, pochta xizmatlari bilan o'zaro integratsiyasi tahlil qilingan. Elektron tijoratning rivojlanishi natijasida pochta xizmatlarining logistika tizimiga, mijozlar bilan aloqalariga va xizmat ko'rsatish tezligi hamda sifati bo'yicha yangiliklar kiritilishi zarurligi asoslangan.

Bobda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida va jahonda elektron tijoratni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlar, prezident farmonlari va qarorlar, hukumatning elektron savdo infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlari tahlil qilingan. Elektron tijorat subyektlarining faoliyat yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash, to'lov tizimlarini avtomatlashtirish, xavfsizlik va huquqiy kafolatlarni ta'minlash yo'nalishlarida amalga oshirilgan choralar yoritilgan.

Bundan tashqari, birinchi bobda elektron tijorat tizimlarining samaradorligini baholash mezonlari va uslublari ko'rib chiqilgan bo'lib, bunda iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida monitoring qilish, biznes jarayonlarni optimallashtirish va ularni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Bunday yondashuv pochta xizmatlari samaradorligini oshirishda elektron tijoratning salohiyatini to'liq ishga solish imkonini beradi. Shuningdek, bobda xalqaro va mahalliy tadqiqotlar

asosida ilg'or tajribalar umumlashtirilgan, hamda elektron tijorat orqali pochta xizmatlarini raqamlashtirish istiqbollari nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Zamonaviy elektron tijorat tizimlari mijozlar bilan ishlashda o'z tajribasini yaxshilash uchun savdo hajmini oshirishi va operatsion jarayonlarni optimallashtirishida turli komponentlardan foydalanishi kerak. Quyida elektron tijorat jarayonining asosiy tarkibiy qismlari keltirib o'tilgan:



1-rasm. Elektron tijorat (e-commerce) – tovar va xizmatlarni internet orqali sotish va sotib olish⁶

Elektron tijorat muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ushbu tarkibiy qismlarning barchasi birgalikda ishlashi kerak.

Pochta xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijorat (e-tijorat)ning o'rni va ahamiyati bo'yicha dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar elektron tijoratning pochta xizmatlariga ta'siri, logistika, mijozlar bilan aloqa, texnologik innovatsiyalar va boshqa yo'nalishlarni qamrab oladi. Quyida bu sohada faoliyat olib borgan ba'zi olimlar va ularning ilmiy ishlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tamiz:

John Fernie va David Grantlar⁷ ishlarida pochta xizmatlari va elektron tijoratning logistika tizimiga ta'siri haqida tadqiqotlar olib borishgan. Ularning tadqiqotlarida elektron tijoratning kuchayishi bilan pochta xizmatlarining logistika tizimlarini qanday yangilashi va takomillashtirishi haqida tahlillar keltirganlar.

V.Mikola va O.Andriy fikriga ko'ra, AQSh aholisi soni va hududi jihatidan katta bo'lganligi, shuningdek mamlakatda elektron tijorat muhiti va infratuzilma yaxshi rivojlanganligi sababli, ushbu davlat elektron tijoratdan yuqori daromad olish qobiliyatiga ega⁸.

Mashhur tadqiqotchi Don Tapscott, elektron tijoratning iqtisodiyotni raqamlashtirishdagi o'rni pochta va logistika xizmatlarining yangi raqamli iqtisodiy muhitda qayta formatlanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra raqamli tovarlar bilan birga, jismoniy tovarlarning tez va ishonchli yetkazilishi uchun pochta xizmatlari raqamli tijorat infratuzilmasining ajralmas qismidir⁹.

⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

⁷ Fashion Logistics: Insights into the Fashion Retail Supply Chain John Fernie

⁸ Mykola V.Melnyki, Andriy O. Blyznyukov. Electronic Business of Japan in Comparison with the U.S. Mechanism of Economic Regulation, 2021, №2.

⁹ Tapscott, D. (2014). The Digital Economy. McGraw-Hill Education.

O‘zbekiston olimlaridan R.X.Xayitov o‘zining ilmiy maqolasida, “Pochta xizmatlari zamonaviy AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) bilan uyg‘unlashtirilganda elektron tijorat uchun asosiy infratuzilmaga aylanadi. Yangi integratsiyalashgan tizimlar elektron buyurtmalarni tezkor yetkazishga xizmat qiladi”¹⁰ deb fikr bildirgan.

Ushbu fikrlar asosida aytish mumkinki, elektron biznesning rivojlanishida turli yo‘nalishlar shakllanmoqda. Shulardan biri sifatida pochta xizmatlarining transformatsiyasi va raqamli infratuzilma bilan uyg‘unlashuvi alohida e‘tiborga loyiqdir. Ayniqsa, elektron tijoratning kengayishi natijasida yuzaga kelgan mahsulot aylanishining fizik jihatdan amalga oshirilishi – aynan pochta va logistika xizmatlari orqali ta‘minlanadi.

Dissertatsiyaning **“Elektron tijoratni rivojlantirish sharoitida biznes jarayonlarining amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, unda elektron tijorat sharoitida biznes jarayonlarni boshqarishning amaldagi holati chuqur tahlil qilinadi. Bobda birinchi navbatda xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida elektron tijoratni rivojlantirishda biznes jarayonlarni boshqarishning ilg‘or amaliyotlari o‘rganilgan. Xususan, yetakchi davlatlarda elektron tijoratning logistika, xizmat ko‘rsatish sifati, raqamli platformalar orqali boshqaruv samaradorligini oshirishda qo‘llanilgan usullar tahlil qilingan va ularning O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari baholangan.

Ushbu bobda O‘zbekiston pochta AJ faoliyati taxlillari amalga oshirilgan, hamda shu bilan bir qatorda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida elektron tijorat sohasida biznes jarayonlarni boshqarishdagi ilg‘or yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va strategik modellar tahlil qilinadi. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapurda elektron tijoratni rivojlantirishda qo‘llanilgan yondashuvlar o‘rganilgan. Bu mamlakatlarda elektron tijorat infratuzilmasining rivojlanganligi, raqamli to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi, logistika zanjirlarining avtomatlashtirilgani va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarining tizimli tarzda amalga oshirilgani ta‘kidlab o‘tilgan.

Universal Postal Union (UPU) tomonidan ishlab chiqilgan Integrated Index for Postal Development (2IPD) indeksi pochta xizmatlarining rivojlanish darajasini baholashda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu indeks to‘rtta muhim mezonni o‘z ichiga oladi: ishonchlilik (reliability), global qamrov (reach), dolzarblik (relevance) va barqarorlik (resilience). 2IPD tahlillari shuni ko‘rsatadiki, elektron tijorat rivojlangan mamlakatlarda pochta xizmatlari ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, aholiga yetkazib berish, qaytarish, kross-chegara logistika xizmatlari keng qamrovda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 2021-yilgi hisobotda ko‘rsatilganidek, elektron savdo ortishi bilan pochta operatorlarining daromad manbalari diversifikatsiyalanmoqda, ya‘ni ular nafaqat an‘anaviy xat-xabarlar, balki posilka, elektron pul o‘tkazmalari, davlat xizmatlarini yetkazib beruvchi vositaga aylanmoqda. Bu esa xizmat turlarining ko‘payishiga va foyda darajasining ortishiga olib keladi.

¹⁰ Xayitov R.X. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pochta aloqasi xizmatlarini modernizatsiyalash yo‘llari”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 4-son, 2020

Ma'lumotlarga ko'ra, pochta daromadlarining o'sishi jahon YaIM o'sishidan ancha sekin kechmoqda, ammo elektron tijorat rivojlanishi bu jarayonni keskin jadallastirmoqda. UPU hisobotlarida qayd etilishicha, 1996-yildan 2016-yilgacha Jahon YaIM ikki barobarga o'sgan bo'lsa, pochta sohasidagi umumiy daromadlar bundan kamroq sur'atda o'sgan. Biroq elektron tijorat bilan bog'liq logistika segmentlaridagi daromadlar bu tendensiyani yaxshilab, pochta xizmatlari uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

1-jadval

**Elektron tijorat va pochta xizmatlari rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik
(tanlab olingan davlatlar misolida)**

Davlat	2IPD (2020) ballari ¹¹	Elektron tijorat bozori hajmi (mlrd USD) ¹²	Pochta orqali jo'natmalar soni (yillik, mln) ¹³	Pochta xizmatlari daromadi (mlrd USD) ¹⁴
Shveysariya	100.0	11.8	150	7.1
Germaniya	94.2	99.1	310	24.6
Niderlandiya	92.7	32.3	250	8.4
Yaponiya	90.4	177.3	420	19.5
Braziliya	53.1	39.3	220	4.7
O'zbekiston	19.6	1.1	10	0.03

Shu bilan birga, elektron tijorat yuqori rivojlangan mamlakatlarda 2IPD ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lishi kuzatilmoqda. Masalan, Shveysariya, Germaniya, Niderlandiya va Yaponiya kabi davlatlar 90 balldan yuqori natija bilan ro'yxatning eng yuqori pog'onalarini egallagan bo'lib, ularda ham elektron savdo, ham pochta xizmatlari yuqori darajada avtomatlashtirilgan va integratsiya qilingan. (1-jadval).

Yuqori 2IPD ballariga ega mamlakatlarda elektron tijorat bozori hajmi ham, pochta xizmatlarining daromadi va yuk oqimi ham ancha katta. Bu esa elektron tijorat rivojlanishi bilan pochta xizmatlari o'rtasidagi bevosita ijobiy korrelyatsiya mavjudligini tasdiqlaydi.

Xorijiy tajriba asosida olib borilgan tahlillar natijasida O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali boshqaruv usullari va texnologik yondashuvlar aniqlangan. Shu orqali elektron tijorat doirasidagi biznes jarayonlarni optimallashtirish va ularning samaradorligini oshirish istiqbollari belgilangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Elektron tijoratni rivojlantirishda biznes jarayonlarni takomillashtirish istiqbollari**" deb nomlanib, Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Elektron tijoratni rivojlantirishda biznes jarayonlarni takomillashtirish istiqbollari" deb nomlanib, unda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarni yanada takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlari yoritilgan. Ushbu bobda birinchi navbatda raqamli transformatsiyaning biznes jarayonlar boshqaruviga

¹¹ <https://www.upu.int/UPU/media/upu/publications/2020-Postal-Development-Report.pdf>

¹² <https://www.statista.com/outlook/emo/ecommerce/worldwide?currency=USD>

¹³ <https://unctadstat.unctad.org/datacentre/dataviewer/US.DigitallyDeliverableServices>

¹⁴ <https://www.statista.com/outlook/emo/ecommerce/worldwide?currency=USD>

ta'siri baholanib, mavjud muammolar va imkoniyatlar asosida transformatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan.


Bobda “O‘zbekiston pochta” AJ misolida biznes jarayonlarni optimallashtirish yo‘nalishlari amaliy jihatdan asoslangan bo‘lib, jumladan, buyurtmalarni avtomatlashtirish, ombor faoliyatini raqamlashtirish, mijozlar bilan ishlash tizimini integratsiyalashgan shaklga keltirish va logistika jarayonlarini algoritmlashtirish taklif etilgan. Shuningdek, elektron tijoratni rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy boshqaruv modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan.

Uchinchi bobda shuningdek, biznes jarayonlarni baholashda foydalaniladigan indikatorlar (ROE, ROA, sof foyda marjasi va boshqalar) asosida monitoring tizimini takomillashtirish usullari, yangi investitsiyalarni jalb etish modeli, xizmat sifatini oshirish va foydalanuvchi ehtiyojiga moslashuvchan tizim yaratish bo‘yicha mualliflik yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan takliflar keltirilgan.

Ushbu tadqiqot doirasida “O‘zbekiston pochta” AJ tizimida boshqaruv jarayonida raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqilgan. Moliyaviy imkoniyatlarni oshirish modeli pochta sohasida operatsion va moliyaviy samaradorlikni kompleks tarzda o‘zgartirishga qaratilgan tizimlashtirilgan yondashuv bo‘lib, tarkibida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq beshta asosiy strategik yo‘nalishga ajratilgan:

- axborot ochiqligini ta‘minlash;
- yetkazib berish tezligini oshirish;
- raqamlashtirish darajasini oshirish;
- yangi mijoz segmentlarini jalb qilish;
- cross-sell va up-sell asosidagi sotuv strategiyasini takomillashtirish (2-rasm).

Moliyaviy imkoniyatlarni oshirish modeli



2-rasm. “O‘zbekiston pochta” AJ da “Moliyaviy imkoniyatlarni oshirish modeli”ni qo‘llash asosida yangi mablag‘larni jalb qilishni takomillashtirilgan sxematik ko‘rinishi ¹⁵

¹⁵ Muallif ishlanmasi

Ishlab chiqilgan biznes jarayonlarini amalga oshirish mexanizmi umuman korxonada faoliyatiga, tizimli yondoshishga va boshqaruv ishlarining sifatini yangi bosqichga ko'tarishda, korxonada ishlagan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va korxonaning turli ko'rsatkichlaridagi og'ish sabablarini bartaraf etish uchun strategik yo'naltirilgan byudjetlashtirish va uning faoliyatiga asoslangan bo'ladi.

Bu mexanizmlarni bir tizimdagi bloklar sifatida tashkil etish mumkin.

$$MIFM = \alpha_1 I_1 + \alpha_2 I_2 + \alpha_3 I_3 + \alpha_4 I_4 + \alpha_5 I_5$$

MIFM – Moliyaviy Imkoniyatlarni Foydalanish Modeli bahosi

I_1 – Axborot ochiqligi indeksi

I_2 – Yetkazib berish tezligi ko'rsatkichi

I_3 – Raqamlashtirish darajasi

I_4 – Yangi mijozlar soni/ulushi

I_5 – Cross/Up-selldan tushgan daromad

α – Har bir ko'rsatkichning vazni (ekspert yoki AHP usuli orqali belgilanadi).

1. Indikatorlarni normalizatsiya qilish (0–1 orasida):

I_1 - Axborot ochiqligi indeksi:

Umumiy ochiqlikni baho berish uchun quyidagicha agregat indeks olamiz:

$$I_1 = (0.55 + 0.30 + 0.173) / 3 = 1.02 / 3 \approx 0.34$$

I_2 - Yetkazib berish tezligi:

- 46 ta kechikish / 100 = 0.46 → bu salbiy - 18 soat yetkazib berish — yuqori vaqt, past baho

Shartli shkalada buni **0.4** deb baholaymiz.

$$I_2 = 0.4$$

I_3 - Raqamlashtirish darajasi:

- Raqamli xizmatlar ulushi: 0.30

- Avtomatlashgan operatsiyalar ulushi: 0.68

- Onlayn murojaatlar kuchi: yuqori

$$I_3 = (0.30 + 0.682) / 2 = 0.49$$

I_4 - Yangi mijozlar:

- Yangi kontraktlar soni: 6

- Bozor ulushi: 27%

- SME mijozlar ulushi: 70%

$$I_4 = (0.27 + 0.702) / 2 = 0.485$$

I_5 - Cross/Up-sell ko'rsatkichi:

- ARPU: 46,000 – yaxshi

- Qo'shimcha xizmatlar soni: 17 ta - yuqori

$$I_5 = 0.6 \text{ (yaxshi daraja)}$$

2. Agar vaznlar barobar bo'lsa ($\alpha = 0.2$):

Har bir ko'rsatkichga bir xil ahamiyat berilsa:

$$MIFM = 0.2 \cdot (0.34 + 0.4 + 0.49 + 0.485 + 0.6) = 0.2 \cdot 2.315 = 0.463$$

MIFM natija: ≈ 0.46 (46%) (2-jadval).

Tadqiqotda quyidagi natijalarga erishildi:

– moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish salohiyati o'rta darajaga erishildi;

- axborot ochiqligi va yetkazib berish tizimidagi kamchiliklar borligi aniqlandi;
- Cross-sell va raqamlashtirish darajasi oshirildi.

2-jadval

Moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish modelining baholash indikatori¹⁶

Mexanizm	Baholash indikatori	Izoh
Axborot ochiqligi	Mijoz ishonchi indeksi 55%, ommaviy ochiq ma'lumotlar soni 30%, veb-sayt faolligi-17%	Internet foydalanuvchilar faoliyati tahlili orqali baholanadi
Yetkazib berish tezligi	O'rtacha yetkazib berish vaqti – 18 soat, kechikishlar soni-100 tadan 46 ta	RFID yoki skan ma'lumotlari orqali aniqlanadi
Raqamlashtirish	Raqamli xizmatlar ulushi 0,30, onlayn murojaatlar soni- 1 kunda 167 ta, avtomatlashtirilgan operatsiyalar ulushi - 0,68	AT tizimlaridan avtomat hisobot olish mumkin
Yangi mijozlar	Yangi kontraktlar soni - 6ta, bozor ulushi- 27%, SME mijozlar ulushi – 70%	CRM yoki so'rovnomalar orqali aniqlanadi
Sotuv strategiyalari (Cross-sell/Up-sell)	ARPU (bir mijozga daromad)-46000 ming so'mni tashkil qiladi, qo'shimcha xizmatlar soni- 17 ta	Moliyaviy hisobotlari orqali baholanadi


Korxonaning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda kuchli pozitsiyalarni yanada mustahkamlash, hamda zaif tomonlarni bartaraf etish uchun investitsiyalarni talab qiladigan sohalar aniqlanadi. Tashqi va ichki muhit omillarini tahlil qilish asosida umuman korxonaning faoliyati va uning byudjet tizimi uchun asos belgilanadi, uning doirasida korxonaning rivojlanishining dolzarb bo'lgan maqsadlari shakllantiriladi. Korxonaning biznes strategiyasi ishlab chiqiladi va uni amalga oshirishning uzoq muddatli rejasi tuziladi.

Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda korxonaning oldida turgan maqsadlarini tahlil qilish uchun mavjud ko'rsatkichlar va mezonlar to'plamidan unga eng foydalisini tanlash imkoniyatini beradi.

Biznes jarayonlarini amalga oshirish mexanizmi korxonaning rahbariyatidan sezilarli tashkiliy va boshqaruviy sa'y-harakatlarni talab etadi hamda uni to'liq joriy etish jarayoni nisbatan ko'p vaqtni o'z ichiga oladi. Tayyorgarlik bosqichida korxonaning tashkiliy tuzilmasi, bo'limlarning funksiyalari, axborot oqimlari va hujjatlar aylanishi tahlili o'tkazilishi kerak. Biznes jarayonlarini amalga oshirish mexanizmini yaratish bosqichlarini ko'rib chiqish mumkin.

Ombor biznes jarayonlari onlayn-do'kon biznesining eng muhim qismlaridan biridir. Uning yordamida tovarlarni qabul qilish, saqlash, mijozlarning joriy talablarini qondirish, buyurtmalarni o'z vaqtida qayta ishlash, yig'ish va jo'natish ta'minlanadi. Ombor faoliyatini to'g'ri tashkil etish tufayli mahsulotlarning ortiqcha yetishmasligi va buzilishining oldini olish mumkin.

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



3-rasm. “O‘zbekiston pochta” AJning biznes jarayonlarini amalga oshirish mexanizmi¹⁷

Buyurtmalar bilan ishlash kelajakdagi mijozlarning sodiqligiga ta’sir qiluvchi eng muhim bosqichdir.

Bu quyidagilarni ta’minlaydi:

- kompaniyaga barcha kiruvchi qo‘ng‘iroqlarni qayta ishlash-telefon qo‘ng‘iroqlari – elektron pochta xabarlar va messenjerlar, onlayn chatlar va chiptalardagi xabarlar;


- yuqori sifatli va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish;
- veb-sayt va boshqa aloqa kanallaridan sotib olish so‘rovlarini qabul qilish;
- buyurtma qilingan mahsulot nomlari mavjudligini nazorat qilish;
- buyurtmalarni tekshirish va tasdiqlash;
- mijoz uchun turli xil narsalarni bron qilish;
- mijozlarni ariza holati to‘g‘risida xabardor qilish;
- keyinchalik yig‘ish va sozlash uchun ma’lumotni omborga o‘tkazish;
- xarid uchun to‘lovni qabul qilish;
- buyurtmani yetkazib berishni tashkil etish;
- mijozlarni qaytarish bilan ishlash.

Amaldagi Qonunchilik talablariga muvofiq, har bir operatsiya mijozning elektron pochta manziliga elektron kvitansiya yuborish yoki kurer uchun tegishli hujjatlarni chop etish bilan birga bo‘lishi kerak. Biznes operatsiyalari muntazam ravishda onlayn-do‘konda amalga oshiriladi. Bu pul oqimlarini hisobga olish, saytni saqlash va yangilash, xodimlarni boshqarish, reklama ishlari va boshqa muhim tadbirlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Quyidagi 4-rasmda mahsulotni sotib olish jarayonining biznes-jarayon modelini aks ettiradi. Unda mijoz tomonidan buyurtma berishdan boshlab bitimning yakunlanishigacha bo‘lgan bosqichlar tizimli ravishda ko‘rsatilgan. Model mahsulot

¹⁷ Muallif ishlanmasi

mavjudligini do‘kon va ombor darajasida tekshirish, buyurtma va hisob-kitob jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali korxonada logistika va savdo faoliyatining uzluksizligini ta‘minlash mexanizmini ifodalaydi.



4-rasm. “O‘zbekiston pochta” AJda mijozlarning buyurtmalarini qayta ishlash sxemasi¹⁸

Biznes jarayonning holatini to‘liq tavsiflovchi mezonlarni ishlab chiqish va ularning rejalashtirilgan qiymatlarini belgilashda, jarayonning kelajakdagi samaradorligi aniqlanadi. Samaradorlikni baholash mezonlarni ishlab chiqish tashkilotdagi tizimlar va jarayonlar uchun standart talablariga asoslanadi:

- jarayon faoliyatining to‘liq ko‘lamini aks ettirish;
- foydalanuvchi uchun qulaylik;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqligi.

3-jadval

“O‘zbekiston pochta” AJda biznes jarayonlarni baholashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tarkibi(mln. so‘m)¹⁹

Ko‘rsatkich nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Xususiy kapital	25724,9	128233,3	130008,3	136542,2	143518,3
Sof foyda	315,0	690,0	810,1	809,8	843,9
Aktivlar	193161,8	328056	260909,8	301077,0	395827,4
Sof tushum	229773	274437,6	298634,9	381903,4	603476,3
Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati	96781,9	135380,0	153598,2	167066,0	167480,0
Aylanma mablag‘lar	37054,6	125970,8	82988,9	98325	102125,3
Joriy aktivlar	155430,7	250256,3	165654,3	196579,9	295489,0
Joriy majburiyatlar	118376,1	124285,5	82665,4	98254,9	88161,4

¹⁸ Muallif ishlanmasi

¹⁹ “O‘zbekiston pochta” AJ ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Keyinchalik, har bir mezon uchun qiymatlar o'rtasidagi munosabatlar jarayonni boshqarish bo'yicha tuzatuvchi harakatlarni keyingi ishlab chiqish uchun aniqlanadi.

4-jadvalda keltirilgan jadval asosida shuni ta'kidlash lozimki, ROE ya'ni xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichi 2024-yilda 0,59 foizga teng bo'lgan va 2023-yilga nisbatan tengligini ko'rish mumkin. Jadvaldagi ROA va sof foyda marjasi ko'rsatkichi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan kam bo'lgan. Lekin RFA va RCA ko'rsatkichlari 2024-yilda 2023-yilga nisbatan yoqori bo'lgan.

4-jadval

“O‘zbekiston pochta” AJda biznes jarayonlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari²⁰

Ko'rsatkich nomi	2020	2021	2022	2023	2024
ROE	1,22	0,54	0,62	0,59	0,59
ROA	0,16	0,21	0,31	0,27	0,21
Sof foyda marjasi	0,14	0,25	0,27	0,21	0,14
RFA	0,33	0,51	0,53	0,48	0,50
RCA	0,85	0,55	0,98	0,82	0,83

Optimallashtirishni boshlashdan oldin, ma'lum bir jarayonning salbiy tomonlari va nosozliklarini aniq ko'rish imkonini beradigan xaritani yaratish kerak. Optimallashtirish usuli muayyan vaziyat uchun tanlanadi. Muhokama qilinadigan muammoga qarab, tadbirkor tegishli jarayonni yo'q qilishi, qisqartirishi, soddalashtirishi, o'zgartirishi, to'ldirishi yoki standartlashtirishi mumkin. Buning uchun optimallashtirish maqsadlari ajratib ko'rsatiladi va biznes jarayonining barcha elementlari alohida ko'rib chiqiladi.

Ish muddatini qisqartirishdan tashqari, tovarlar va xizmatlar narxini pasaytirish, sotishni ko'paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, resurslarni bo'shatish, rejalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida biznes-jarayonlar optimallashtiriladi.

Mamlakatimizda pochta tarmog'i faoliyatining ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish mazkur tarmoqni tahlil qilish va kelgusida rivojlantirish yo'nalishlaridan biri tanlab olish muhim hisoblanadi. Ekonometrik modellar pochta tarmog'ining rivojlanish ko'rsatkichlarini miqdoriy tahlil qilibgina qolmasdan, balki unga ta'sir etuvchi omillar tarkibi hamda har bir omilning ulushini aniqlab berishga ham imkon beradi.

Respublikamizda pochta tarmog'ining rivojlanish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish – mazkur tarmoqda tannarx pasayishiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy aniqlash hamda ularni rivojlantirish bo'yicha optimal qarorlar ishlab chiqishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi pochta tarmog'i rivojlanishini aniqlashda quyidagi omillardan foydalanish mumkin:

- natijaviy omil - “O‘zbekiston pochta” AJda sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi, ming so'm, (Y);

²⁰ “O‘zbekiston pochta” AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

- ta'sir etuvchi omillar sifatida - "O'zbekiston pochta" AJda asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati, ming so'm (X_1);
- "O'zbekiston pochta" AJda uzoq muddatli investitsiyalar hajmi, ming so'm (X_2);
- "O'zbekiston pochta" AJning tovar-moddiy zaxiralari, ming so'm (X_3);
- "O'zbekiston pochta" AJning debitorlar hajmi, ming so'm (X_4);
- "O'zbekiston pochta" AJning pul mablag'lari hajmi, ming so'm (X_5);
- "O'zbekiston pochta" AJning uzoq muddatli majburiyatlari hajmi, ming so'm (X_6);
- "O'zbekiston pochta" AJning joriy majburiyatlari hajmi, ming so'm (X_7);
- "O'zbekiston pochta" AJning sof foyda hajmi, ming so'm (X_8);
- "O'zbekiston pochta" AJning mahsulot (tovar, ish va xizmat)larini sotishdan sof tushum hajmi, ming so'm (X_9);
- "O'zbekiston pochta" AJning soliqlari hajmi, ming so'm (X_{10}).

